**V.I. ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

MATEMATIKA INSTITUTI

XUDOYBERDIYEV XAYOTJON OCHILTOSH O‘G‘LI

NOVOLTERRA KVADRATIK OPERATORLAR DINAMIKASI: O‘RIN ALMASHTIRISHLI VA EPIDEMIK MODELLAR

01.01.01 – Matematik analiz

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

TOSHKENT - 2025

UDK: 517.98

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical-mathematical sciences

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

V.I. ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

MATEMATIKA INSTITUTI

XUDOYBERDIYEV XAYOTJON OCHILTOSH O‘G‘LI

NOVOLTERRA KVADRATIK OPERATORLAR DINAMIKASI: O‘RIN ALMASHTIRISHLI VA EPIDEMIK MODELLAR

01.01.01 – Matematik analiz

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

TOSHKENT - 2025

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, Fan va Innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasida B2024.4.PhD/FM1176 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Matematika institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (https://kengash.mathinst.uz) va "ZiyoNet" ta’lim axborot tarmog‘ida (http://www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Jamilov Uyg‘un Umurovich** fizika-matematika fanlari doktori
Rasmiy opponentlar:	**G‘anixo‘jayev Nosir Nabiyevich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
	Usmonov Javohir Bahodir o‘g‘li fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Yetakchi tashkilot:	**Toshkent davlat transport universiteti**

Dissertatsiya himoyasi V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "01" iyul kuni soat 16:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 9-uy. Tel.: (+998 71) 207 91 40, e-mail: uzbmath@umail.uz, Website: www.mathinst.uz).

Dissertatsiya bilan V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№205-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 9-uy. Tel.: (+998 71) 207 91 40.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "11" iyun kuni tarqatildi.
(2025-yil "11" iyundagi 2- raqamli reestr bayonnomasi).

O‘.A. Roziqov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
f.-m.f.d., akademik

J.K. Adashev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
f.-m.f.d., katta ilmiy xodim

A.A.Raximov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash huzuridagi
Ilmiy seminar rais o‘rinbosari,
f.-m.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida olib borilayotgan ko‘plab ilmiy va amaliy tadqiqotlar aksariyat hollarda nochiziqli dinamik sistemalarning xossalarini o‘rganishni taqozo etadi. Dinamik sistemalar xossalaridan matematik biologiya, genetika va tibbiyot sohalarida duch keladigan prognozlash masalalarini hal qilishda keng foydalaniladi. Dinamik sistemalar ikki turga bo‘linadi: uzluksiz vaqtli dinamik sistemalar va diskret vaqtli dinamik sistemalar. Biologik populyatsiyaning evolyutsiyasini ifodalovchi operatorlar hosil qilgan dinamik sistemalar matematik biologiyaning asosiy tadqiqot obyektlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli, evolyutsion operatorlarning muhim sinfi bo‘lgan kvadratik stoxastik operatorlar dinamikasini tadqiq qilish nochiziqli dinamik sistemalar nazariyasida dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Hozirgi kunda Volterra kvadratik stoxastik operatorlarining dinamik xossalari atroflicha o‘rganilgan. Nochiziqli dinamik sistemalar nazariyasidagi muhim muammolardan biri bo‘lgan novolterra kvadratik stoxastik operatorlari orbitalarining asimptotikasini tavsiflash borasida ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotlarning asosida kvadratik stoxastik operatorlardan hosil qilingan nochiziqli dinamik sistemalarning invariant to‘plamlarini aniqlash, davriy nuqtalarining aniq ko‘rinishini topish hamda ularning tipini aniqlash, dinamik sistema uchun Lyapunov funksiyalarini topish va dinamik sistema orbitalarining asimptotik xarakterlarini tadqiq qilish kabi masalalar yotadi. Ta’kidlash joizki, umumiy holdagi nochiziqli dinamik sistemalar uchun yuqorida sanab o‘tilgan masalalar to‘liq hal qilinmagan. Shu tufayli o‘rin almashtirishlarga va epidemik modellarga bog‘liq kvadratik stoxastik operatorlarning dinamik xossalarini tadqiq etish maqsadli ilmiy tadqiqotlardan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda fundamental fanlarning ilmiy va amaliy tatbiqiga ega bo‘lgan matematika, fizika, kimyo va biologiya fanlariga e’tibor kuchaytirildi. Jumladan, biologiya, tibbiyot, iqtisodiyot sohalarida keng qo‘llaniladigan nochiziqli dinamik sistemalar nazariyasini rivojlantirishga alohida e’tibor berildi va bu borada salmoqli natijalarga erishildi. “Algebra, funksional analiz va dinamik tizimlar nazariyasi” fanlarining ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha xalqaro standartlar darajasida ilmiy tadqiqotlar olib borish matematika fanining asosiy vazifalari va faoliyat yo‘nalishlari etib belgilandi[1]. Bu qaror ijrosini ta’minlash maqsadida ilmiy natijalarni fanning turdosh sohalariga tatbiq etish borasida kvadratik stoxastik operatorlar bilan hosil qilingan diskret vaqtli dinamik sistemalar nazariyasini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi va 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2019-yil 9-iyuldagi PQ-4387-son “Matematika ta’limi va fanlarini

[1] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 18-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining yangidan tashkil etilgan ilmiy tadqiqotlar muassasalari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 292-sonli qarori.

yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi va 2020-yil 7-maydagi PQ-4708-son “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. “Matematika, mexanika va informatika” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tabiatda ro‘y beradigan hodisa va jarayonlarni tushunish va o‘rganish uchun turli matematik modellardan, jumladan, dinamik sistemalar nazariyasi usullaridan keng foydalaniladi. Shu sababli diskret vaqtli dinamik sistemalarga tadqiqotchilar tomonidan qiziqish ortib bormoqda. Kvadratik stoxastik operatorlar matematik biologiyadagi irsiyat qonunlari bilan bog‘liq masalalarni hal qilish uchun kiritilgan. Bunday operatorlar bilan hosil qilingan diskret vaqtli dinamik sistemalar nazariyasidan biologiya, ekologiya, tibbiyot, iqtisodiyot va axborot texnologiyalari sohalaridagi ayrim murakkab jarayonlarni modellashtirishda foydalanib kelinmoqda. Kvadratik stoxastik operatorlar 1924-yilda S. Bernshteyn tomonidan ilk bora matematik biologiya va populyatsion genetikada gen chastotalari evolyutsiyasini ifodalovchi operatorlar sifatida fanga kiritilgan. Bu kabi operatorlar fizika, kimyo, iqtisodiyot kabi sohalarda ham tatbiqiga ega bo‘lgani uchun kvadratik stoxastik operatorlarning dinamik xossalari katta qiziqish bilan tadqiq etila boshlandi. Kvadratik operatorlar nazariyasi S. Ulam, H. Kesten, Yu.I. Lyubich, S.S. Vallander, R. Jenks, E.Akin, V. Losert, T.A. Sarimsoqovlar tomonidan rivojlantirilgan va bugungi kunda M.I. Zaharevich, R.N. G‘anixo‘jayev, N.N. G‘anixo‘jayev, O‘.A. Roziqov, F.M. Muxamedov, U.U. Jamilov va O.N. Hakimovlar tomonidan tadqiqotlar davom ettirilib kelinmoqda.

Shuni ham ta’kidlash joizki, umumiy holda kvadratik stoxastik operatorning asimptotik xarakterini o‘rganish asosiy masala bo‘lib hisoblanadi. Ushbu masala bir o‘lchamli simpleksda aniqlangan kvadratik operatorlar uchun Yu.I. Lyubich tomonidan to‘la hal qilingan. Ammo, umumiy holda bu masala ikki va undan yuqori o‘lchamli simplekslarda aniqlangan kvadratik operatorlar uchun to‘liq hal qilinmagan. Volterra kvadratik stoxastik operatorlari uchun asosiy masala R.N. G‘anixo‘jayev va uning shogirdlari tomonidan chuqur tadqiq qilinib kelinmoqda. Bugungi kunda N.N. G‘anixo‘jayev, O‘.A. Roziqov, F.M. Muxamedov, A. Zada, M. Ladra, U.U. Jamilov, O.N. Hakimov, A.Yu. Xamrayev, S.K. Shoyimardonov, S.S. Xudayarovlar novolterra kvadratik stoxastik operatorlar dinamikasini tadqiq qilish bo‘yicha ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borishmoqda.

R.N. G‘anixo‘jayev va D.B. Eshmamatova ishlarida chekli o‘lchamli simpleksda aniqlangan kvadratik gomeomorfizmlari tavsiflangan va ularning aniq ko‘rinishi topilgan. Ular tomonidan Volterra kvadratik stoxastik operatorlari va ularning tatbiqlari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Okean ekosistemalarining ba’zi modellari tomonidan hosil qilingan diskret vaqtli dinamik sistemalarni O‘.A. Roziqov va S.K. Shoyimardonovlarning ishlarida tadqiq qilingan. Kvadratik stoxastik operatorlar yordamida kompyuterlarda tarqaladigan ba’zi internet viruslari dinamikasini F.T. Adilova, U.U. Jamilov va A. Reynfeldslar ishlarida tadqiq etilgan. Yuqorida ta’kidlanganidek, hozirgi kungacha, kvadratik stoxastik operatorlar ustida ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilishiga qaramasdan, ixtiyoriy kvadratik stoxastik operator uchun asosiy masala to‘la hal qilinmagan. Shu nuqtai nazardan dissertatsiya ishida qaralayotgan novolterra kvadratik stoxastik operatorlari dinamikasini tadqiq etish muhim bo‘lib hisoblanadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy tekshirish instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutining OT-F4-87 raqamli “Yevklid va psevdo-Yevklid fazolaridagi egri chiziqlar va sirtlarning global invariantlari nazariyasi va uning mexanikaga tatbiqlari” (2017-2020 yy), OT-F4-82 raqamli “Operatorlar va noassotsiativ algebralarda lokal differensiallash va avtomorfizmlar, nochiziqli dinamik sistemalarda faza almashishlar va xaos” (2017-2020 yy) mavzusidagi ilmiy tadqiqot loyihalari va “Noassotsiativ algebralar strukturaviy nazariyasi va uning biologik sistemalardagi dinamik sistemalarni tadqiq qilishdagi tatbiqi” (2020-2023 yy) nomli ilmiy yo‘nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi o‘rin almashtirishlarga bog‘liq (I operator) va qayta yuquvchi diskret vaqtli SIRD epidemik modelga mos keluvchi (II operator) novolterra kvadratik stoxastik operatorlar dinamik xossalarini tadqiq qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

I va II operatorlarga nisbatan invariant to‘plamlarni aniqlash;

I va II operatorlarning davriy nuqtalarini va ularning tiplarini topish;

I va II operatorlar uchun Lyapunov funksiyalarini qurish;

I va II operatorlar uchun ixtiyoriy boshlang‘ich nuqta orbitasining limit nuqtalari to‘plamini tavsiflash.

Tadqiqot obyekti: Chekli o‘lchamli simpleksda aniqlangan novolterra kvadratik stoxastik operatorlari.

Tadqiqot predmeti. Kvadratik stoxastik operatorlar nazariyasi va diskret dinamik sistemalar nazariyasi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot ishida matematik analiz, funksional analiz, algebra, ehtimollar nazariyasi va dinamik sistemalar nazariyasi usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ikki o‘lchamli simpleksda aniqlangan novolterra kvadratik stoxastik operatorning davriy nuqtalari to‘plami tavsiflangan. Shuningdek, ixtiyoriy boshlang‘ich nuqtaning orbitasi ko‘pi bilan ikkita limit nuqtaga ega bo‘lishi isbotlangan;

I operatorning davriy nuqtalar to‘plami tavsiflangan hamda ixtiyoriy boshlang‘ich nuqta orbitasining limit nuqtalar to‘plami yagona nuqtadan, yoki cheklita nuqtalardan iborat bo‘lishi ko‘rsatilgan;

II operator simpleksni invariant to‘plam sifatida saqlashi uchun operator parametrlariga zarur va yetarli shartlari topilgan;

II operator uchun Lyapunov funksiyasi topilib va u yordamida ixtiyoriy boshlang‘ich nuqta orbitasining limit nuqtalar to‘plami tavsiflangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari. Olingan yangi natijalardan va dissertatsiyada qo‘llanilgan usullardan diskret vaqtli dinamik sistemalar nazariyasida foydalanishi mumkin. Shuningdek, ushbu natijalardan oliy o‘quv yurtlari magistrantlari va tayanch doktorantlar uchun maxsus kurslarda manba sifatida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Barcha natijalar matematik analiz va funksional analiz, Lyapunov funksiyalari nazariyasi va diskret dinamik sistemalar nazariyasi usullaridan foydalanib olingan. Shuningdek, tadqiqotda olingan natijalar qat’iy matematik mulohazalarga tayanib isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati kvadratik stoxastik operatorlar nazariyasida, matematik biologiya va epidemiologiya sohalaridagi muammolarni hal qilishda qo‘llanilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati I operatorga mos orbitalarning limit nuqtalar to‘plamining tavsifi populyatsiyaning evolyutsiyasi haqida ma’lumotlar berishi bilan izohlanadi. II operatorga mos orbitalarning asimptotik xarakteri epidemiologiyada kasallikning tarqalishi ssenariylarini ifodalashi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. I va II operatorlar dinamikasiga oid olingan natijalar quyidagi yo‘nalishlarda amaliyotga joriy etilgan:

qayta yuquvchi diskret vaqtli SIRD epidemik modeli uchun orbitalarning limit nuqtalari to‘plami tavsifidan G0003447 raqamli “Kvant genetik algebralari va ularning tatbiqlari” mavzusidagi xorijiy loyihada nochiziqli stoxastik operatorlarning regulyarlik xossalarini tahlil qilish uchun foydalanilgan (Birlashgan Arab Amirliklari universiteti 2025-yil 1-maydagi ma’lumotnomasi, BAA). Ilmiy natijaning qo‘llanilishi biologik sistemalarning kelajagini tushunish uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan kvadratik stoxastik operatorlar uchun orbitalarning yaqinlashishini aniqlashga imkon bergan;

o‘rin almashtirishga mos novolterra kvadratik stoxastik operatorlarining davriy nuqtalar to‘plami va limit nuqtalari to‘plamidan PID2020-115155GB-I00 raqamli “Assotsiativ bo‘lmagan gruppalar va algebralarda gomologiyalar, gomotopiyalar va kategorik invariantlar” mavzusidagi xorijiy loyihada evolyutsion algebralarning muvozanat holatlarini tahlil qilishda foydalanilgan (Santyago de Kompostela universitetining 2025 yil 6-maydagi ma’lumotnomasi, Ispaniya). Ushbu ilmiy natijani qo‘llash evolyutsiya algebralaridagi idempotent va absolyut nilpotent elementlarni tavsiflash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 9 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan 4 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya tadqiqoti mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining falsafa doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan 5 tasi xorijiy va 1 tasi respublika jurnalida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish qismi, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 103 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asosli ravishda tahlil qilingan bo‘lib tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlari bilan mosligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganligi keltirilgan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti bayon etilgan, tadqiqotda olingan natijalarning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati tavsiflangan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ko‘rsatilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi haqida ham batafsil ma’lumotlar taqdim etilgan.

Dissertatsiyaning **“Kvadratik stoxastik operatorlarning diskret vaqtli dinamik sistemalari”** deb nomlanuvchi birinchi bobida, kvadratik stoxastik operatorlar nazariyasidagi asosiy ta’riflar va tushunchalar eslatib o‘tilgan. Shuningdek, ikki o‘lchamli simpleksda aniqlangan $(\alpha,\beta)-$kvadratik stoxastik operatorning dinamikasi tadqiq qilingan.

Aytaylik, $E_m=\{1,\dots,m\}$ chekli to‘plam berilgan bo‘lsin. E_m to‘plamda aniqlangan barcha ehtimollik taqsimotlari

$$S^{m-1}=\left\{\mathbf{x}\in R_+^m:\ \sum_{i=1}^m x_i=1\right\}$$

kabi aniqlangan $(m-1)$- o‘lchamli simpleksni tashkil etadi. S^{m-1} simpleksni o‘zini-o‘ziga o‘tkazuvchi V akslantirish ixtiyoriy $\mathbf{x}\in S^{m-1}$ uchun

$$(V\mathbf{x})_k=\sum_{i,j=1}^m p_{ij,k}x_ix_j,\ k\in E_m \qquad (1)$$

ko‘rinishga ega bo‘lsa, V akslantirishga kvadratik stoxastik operator (KSO) deyiladi. Bunda $p_{ij,k}$ koeffitsientlar quyidagi

$$
\begin{aligned}
&p_{ij,k} = p_{ji,k} \geq 0, \quad \text{barcha } i,j,k \in E_m; \\
&\sum_{k=1}^{m} p_{ij,k} = 1, \qquad \text{barcha } i,j \in E_m
\end{aligned}
\tag{2}
$$

shartlarni qanoatlantiradi.

Ixtiyoriy $\mathbf{x}^{(0)} \in S^{m-1}$ boshlang‘ich nuqtaning V operator ta’siridagi orbitasi (trayektoriyasi) deb $\left\{\mathbf{x}^{(n)}\right\}_{n\geq 0}$ ketma-ketlikka aytiladi va bu ketma-ketlikning elementlari barcha $n = 0,1,2,\ldots$ uchun $\mathbf{x}^{(n+1)} = V\left(\mathbf{x}^{(n)}\right) = V^{n+1}\left(\mathbf{x}^{(0)}\right)$ qonuniyat bilan aniqlanadi. $\left\{\mathbf{x}^{(n)}\right\}_{n\geq 0}$ orbitaning barcha limit nuqtalari to‘plami $\omega_V\left(\mathbf{x}^{(0)}\right)$ kabi belgilanadi. Odatda bu to‘plamga orbitaning ω-limit nuqtalari to‘plami deyiladi. Matematik biologiyaning asosiy masalalaridan biri berilgan operator uchun orbitalarning asimptotik xarakterini o‘rganishdan iborat. Boshqacha aytganda, berilgan V KSO uchun ixtiyoriy $\mathbf{x}^{(0)} \in S^{m-1}$ boshlang‘ich nuqta orbitasining ω-limit nuqtalari to‘plamini tavsiflashdan iborat.

1-ta’rif. *Agar $V^n(\mathbf{x}) = \mathbf{x}$ tenglikni qanoatlantiruvchi natural n soni mavjud bo‘lsa, $\mathbf{x} \in S^{m-1}$ nuqtaga V operatorning davriy nuqtasi deyiladi. Yuqoridagi shartni qanoatlantiruvchi n sonlarining eng kichigiga $\mathbf{x}$ nuqtaning asosiy davri yoki eng kichik davri deyiladi. Davri birga teng bo‘lgan nuqta V operatorning qo‘zg‘almas nuqtasi deyiladi.*

Barcha qo‘zg‘almas nuqtalar to‘plamini $\mathrm{Fix}(V)$ bilan va barcha asosiy davri n $(n \geq 2)$ ga teng davriy nuqtalar to‘plamini $\mathrm{Per}_n(V)$ bilan belgilaymiz.

2-ta’rif. *Ixtiyoriy $\mathbf{x} \in S^{m-1}$ uchun $\lim\limits_{n\to\infty} V^n\left(\mathbf{x}\right)$ limit mavjud bo‘lsa, V KSO regulyar operator deyiladi.*

3-ta’rif. *Ixtiyoriy $\mathbf{x} \in S^{m-1}$ uchun*

$$
\lim_{n\to\infty} \frac{1}{n} \sum_{k=0}^{n-1} V^k(\mathbf{x})
$$

limit mavjud bo‘lsa, V KSO ergodik operator deyiladi.

S^{m-1} simpleksning uchlarini $\mathbf{e}_i = (\delta_{1i}, \delta_{2i}, \ldots, \delta_{mi}) \in S^{m-1},\ i \in E_m$ kabi belgilaymiz, bu yerda δ_{ij} Kroneker simvoli. Shuningdek, quyidagi to‘plamlarni aniqlaymiz

$$
\mathrm{int}S^{m-1} = \{\mathbf{x} \in S^{m-1} : x_1 x_2 \cdots x_m > 0\},
$$

$$
\partial S^{m-1} = S^{m-1} \setminus \mathrm{int}\, S^{m-1},
$$

$$
\Gamma_I = \{\mathbf{x} \in S^{m-1} : x_i = 0,\ \forall i \notin I\},\ \forall I \subset E.
$$

Ikki o‘lchamli simpleksda aniqlangan quyidagi $(\alpha, \beta)-$ kvadratik stoxastik operatorini qaraymiz

$$V:\begin{cases} x_1' = x_1^2 + (x_2+x_3)^2 + (1-\alpha)x_1x_{\pi(3)} + (1-\beta)x_1x_{\pi(2)}, \\ x_2' = (1+\beta)x_1x_{\pi(2)}, \\ x_3' = (1+\alpha)x_1x_{\pi(3)}, \end{cases} \tag{3}$$

bu yerda $\alpha,\beta \in [-1,1]$ va π esa $\{2,3\}$ to‘plamning biror o‘rin almashtirishi.

Berilgan $\alpha,\beta \in (0,1]$ sonlar uchun quyidagi nuqtalarni belgilab olamiz:

$$\mathbf{x}_\alpha = \left(\frac{1}{1+\alpha}, 0, \frac{\alpha}{1+\alpha}\right), \quad \mathbf{x}_\beta = \left(\frac{1}{1+\beta}, \frac{\beta}{1+\beta}, 0\right),$$

$$\mathbf{y}_{\alpha,\mathbf{x}^{(0)}} = \left(\frac{1}{1+\alpha}, \frac{\alpha x_2^{(0)}}{\left(1-x_1^{(0)}\right)(1+\alpha)}, \frac{\alpha x_3^{(0)}}{\left(1-x_1^{(0)}\right)(1+\alpha)}\right), \quad \forall \mathbf{x}^{(0)} \in S^2 \setminus \{\mathbf{e}_1\}.$$

1-teorema. *$\pi = Id$ bo‘lsin. (3) (α,β)-KSO uchun quyidagi tasdiqlar o‘rinli:*

i) agar $\alpha,\beta \in [-1,1]$ bo‘lsa, u holda ixtiyoriy $\mathbf{x}^{(0)} \in \Gamma_{\{2,3\}}$ uchun $V\left(\mathbf{x}^{(0)}\right) = \mathbf{e}_1$;

ii) agar $\alpha,\beta \in [-1,0]$ bo‘lsa, u holda barcha $\mathbf{x}^{(0)} \in S^2 \setminus \Gamma_{\{2,3\}}$ uchun $\lim_{n\to\infty} V^n\left(\mathbf{x}^{(0)}\right) = \mathbf{e}_1$;

iii) ixtiyoriy $\mathbf{x}^{(0)} \in \Gamma_{\{1,2\}} \setminus \{\mathbf{e}_1, \mathbf{e}_2\}$ uchun

$$\lim_{n\to\infty} V^n\left(\mathbf{x}^{(0)}\right) = \begin{cases} \mathbf{e}_1, & agar\ \beta \in [-1,0], \\ \mathbf{x}_\beta, & agar\ \beta \in (0,1]; \end{cases}$$

iv) ixtiyoriy $\mathbf{x}^{(0)} \in \Gamma_{\{1,3\}} \setminus \{\mathbf{e}_1, \mathbf{e}_3\}$ uchun

$$\lim_{n\to\infty} V^n\left(\mathbf{x}^{(0)}\right) = \begin{cases} \mathbf{e}_1, & agar\ \alpha \in [-1,0], \\ \mathbf{x}_\alpha, & agar\ \alpha \in (0,1]; \end{cases}$$

v) ixtiyoriy $\mathbf{x}^{(0)} \in \operatorname{int} S^2$ uchun

$$\lim_{n\to\infty} V^n\left(\mathbf{x}^{(0)}\right) = \begin{cases} \mathbf{y}_{\alpha,\mathbf{x}^{(0)}}, & agar\ \alpha = \beta \in (0,1], \\ \mathbf{x}_\alpha, & agar\ \alpha \in (0,1],\ \beta \in [-1,0]\ yoki\ \alpha > \beta,\ \alpha,\beta \in (0,1], \\ \mathbf{x}_\beta, & agar\ \alpha \in [-1,0],\ \beta \in (0,1]\ yoki\ \alpha < \beta,\ \alpha,\beta \in (0,1]. \end{cases}$$

Ixtiyoriy $\mathbf{x}^{(0)} \in \Gamma_{\{1,2\}} \cup \Gamma_{\{1,3\}} \setminus \{\mathbf{e}_1, \mathbf{e}_2, \mathbf{e}_3\}$ uchun quyidagi belgilashlarni kiritamiz

$$\mathbf{y}_{\alpha\beta} = \left(x_{\alpha\beta}, 0, 1-x_{\alpha\beta}\right) \text{ va } \mathbf{z}_{\alpha\beta} = \left(f_\beta(x_{\alpha\beta}), 1-f_\beta(x_{\alpha\beta}), 0\right),$$

bu yerda

$$x_{\alpha\beta} = \frac{\theta(\alpha,\beta)}{6\sqrt[3]{(1+\alpha)(1+\beta)^2}} + \frac{2\sqrt[3]{(1+\alpha)}(\beta-2)}{3\theta(\alpha,\beta)\sqrt[3]{(1+\beta)}} + \frac{1}{3},\ \alpha,\beta \in (-1,1] \text{ va}$$

$$\theta(\alpha,\beta) = \sqrt[3]{4\beta(1+\alpha)(2\beta-5) - 4(7\alpha-20) + 12\kappa(\alpha,\beta)},$$

$$\kappa(\alpha,\beta) = \sqrt{3(4-\alpha\beta)(2-\alpha)(2-\beta) + 9(\alpha-\beta)^2},$$

$$f_\beta(x) = (1+\beta)x^2 - (1+\beta)x + 1,\ x \in [0,1].$$

Har qanday $\mathbf{x}^{(0)} \in \operatorname{int} S^2 \setminus Fix(V)$ uchun quyidagi belgilashlarni kiritib olamiz

$$\hat{\mathbf{x}}_{\delta\gamma}=\left(\hat{x}_1,\hat{x}_2,\hat{x}_3\right),\ \hat{x}_1=x_{\delta\gamma},\ \hat{x}_2=\frac{x_2^{(0)}\left(1-x_{\delta\gamma}\right)}{x_2^{(0)}+x_3^{(0)}},\ \hat{x}_3=\frac{x_3^{(0)}\left(1-x_{\delta\gamma}\right)}{x_2^{(0)}+x_3^{(0)}},$$

bu yerda

$$x_{\delta\gamma}=\frac{\theta(\delta,\gamma)}{6\sqrt[3]{(1+\delta)(1+\gamma)^2}}+\frac{2\sqrt[3]{(1+\delta)}(\gamma-2)}{3\theta(\delta,\gamma)\sqrt[3]{(1+\gamma)}}+\frac{1}{3},$$

$$\theta(\delta,\gamma)=\sqrt[3]{4\gamma(1+\delta)(\gamma-5)-4(7\delta-20)+12\sqrt{\kappa(\delta,\gamma)}},$$

$$\kappa(\delta,\gamma)=3(4-\delta\gamma)(2-\delta)(2-\gamma)+9(\delta-\gamma)^2$$

$$\gamma=\frac{\alpha x_2^{(0)}+\beta x_3^{(0)}}{x_2^{(0)}+x_3^{(0)}},\ \delta=\frac{(1+\alpha)\beta x_2^{(0)}+(1+\beta)\alpha x_3^{(0)}}{(1+\alpha)x_2^{(0)}+(1+\beta)x_3^{(0)}}.$$

$$\tilde{\mathbf{x}}_{\delta\gamma}=\left(\tilde{x}_1,\tilde{x}_2,\tilde{x}_3\right),\ \tilde{x}_1=1-\tilde{x}_2-\tilde{x}_3,\ \tilde{x}_2=(1+\beta)\hat{x}_1\hat{x}_3,\ \tilde{x}_3=(1+\alpha)\hat{x}_1\hat{x}_2.$$

Shuningdek, quyidagi belgilashni kiritib olamiz

$$\mathbf{x}^*=\left(\frac{1}{\sqrt{(1+\alpha)(1+\beta)}},\frac{\sqrt{1+\beta}}{\sqrt{1+\alpha}}x_3^*,x_3^*\right),\ \text{bu yerda}\ x_3^*=\frac{\sqrt{(1+\alpha)(1+\beta)}-1}{\sqrt{1+\beta}\left(\sqrt{1+\alpha}+\sqrt{1+\beta}\right)},\ \alpha,\beta\in(-1,1].$$

2-teorema. $\pi\neq Id$ *bo‘lsin. (3)* (α,β)*-KSO uchun quyidagi tasdiqlari o‘rinli:*

i) agar $\alpha,\beta\in[-1,1]$ *bo‘lsa, u holda har qanday* $\mathbf{x}^{(0)}\in\Gamma_{\{2,3\}}$ *uchun* $V\left(\mathbf{x}^{(0)}\right)=\mathbf{e}_1$*;*

ii) agar $\alpha=-1$ *yoki* $\beta=-1$ *bo‘lsa, u holda ixtiyoriy* $\mathbf{x}^{(0)}\in S^2\setminus\Gamma_{\{2,3\}}$ *uchun* $V^2\left(\mathbf{x}^{(0)}\right)=\mathbf{e}_1$;

iii) agar $\alpha+\beta+\alpha\beta>0$, $\alpha,\beta\in(-1,1]$ *bo‘lsa, u holda barcha* $\mathbf{x}^{(0)}\in\left(\Gamma_{\{1,2\}}\cup\Gamma_{\{1,3\}}\right)\setminus\{\mathbf{e}_1,\mathbf{e}_2,\mathbf{e}_3\}$ *uchun*

$$\lim_{n\to\infty}V^n\left(\mathbf{x}^{(0)}\right)=\begin{cases}\mathbf{y}_{\alpha\beta}, & agar\ n=2k,\\ \mathbf{z}_{\alpha\beta}, & agar\ n=2k+1,\end{cases}\quad k=0,1,2,...$$

iv) agar $\alpha+\beta+\alpha\beta>0$, $\alpha,\beta\in(-1,1]$ *bo‘lsa, u holda har qanday* $\mathbf{x}^{(0)}\in\operatorname{int}S^2\setminus\{\mathbf{x}^*\}$ *uchun*

$$\lim_{n\to\infty}V^n\left(\mathbf{x}^{(0)}\right)=\begin{cases}\hat{\mathbf{x}}_{\delta\gamma}, & agar\ n=2k,\\ \tilde{\mathbf{x}}_{\delta\gamma}, & agar\ n=2k+1,\end{cases}\quad k=0,1,2,...$$

v) agar $\alpha+\beta+\alpha\beta\leq 0$, $\alpha,\beta\in(-1,1]$ *bo‘lsa, u holda ixtiyoriy* $\mathbf{x}^{(0)}\in S^2\setminus\left(\Gamma_{\{2,3\}}\cup\{\mathbf{e}_1\}\right)$ *uchun*

$$\lim_{n\to\infty}V^n\left(\mathbf{x}^{(0)}\right)=\mathbf{e}_1.$$

Dissertatsiyaning **“O‘rin almashtirishlarga mos novolterra kvadratik operatorlar”** nomli ikkinchi bobida, chekli o‘lchamli simpleksda aniqlangan o‘rin almashtirishlarga va mutatsiyalarga mos novolterra kvadratik stoxastik operatorlarning dinamik xossalari o‘rganilgan.

Ikkinchi bobning birinchi paragrafida chekli o‘lchamli simpleksda aniqlangan, o‘rin almashtirishga mos novolterra kvadratik stoxastik operatorlarining invariant to‘plamlari, davriy nuqtalari topilgan va ikkinchi bobning ikkinchi paragrafida shu operatorlarning limit nuqtalar to‘plami tavsiflangan.

Ikkinchi bobning birinchi paragrafida quyidagi operator qaralgan

$$V:\begin{cases} x_k^{'}=(1+\alpha)x_{\pi(k)}x_m, & k\in E_{m-1}, \\ x_m^{'}=x_m^2+\left(\sum_{i=1}^{m-1}x_i\right)^2+(1-\alpha)x_m\left(\sum_{i=1}^{m-1}x_i\right), \end{cases} \qquad (4)$$

bu yerda $\alpha\in[-1,1]$ va π esa E_{m-1} to‘plamning biror o‘rin almashtirishi.

Quyidagi belgilashlarni kiritib olamiz $s=lcm\left(ord(\tau_1),...,ord(\tau_q)\right)$,

$$\Delta_{\tau_l}=\left\{\mathbf{x}\in S^{m-1}: x_u=x_v,\, u,v\in\operatorname{supp}(\tau_l)\right\},\ \Omega_1=\{1,2,...,r\}\subset\{1,2,...,q\},$$

$\Omega_2=\{1,2,...,q\}\setminus\Omega_1$, $\sigma=lcm\left(ord(\tau_{i_1}),...,ord(\tau_{i_l})\right)$, $i_l\in\Omega_2$ va $\alpha>0$, $x_m^{(0)}\neq 1$ uchun

$$\overline{\mathbf{x}}:=\overline{\mathbf{x}}_{\alpha,\mathbf{x}^{(0)}}=\left(\frac{\alpha x_1^{(0)}}{(1+\alpha)\left(1-x_m^{(0)}\right)},...,\frac{\alpha x_{m-1}^{(0)}}{(1+\alpha)\left(1-x_m^{(0)}\right)},\frac{1}{(1+\alpha)}\right),$$

$$M=S^{m-1}\setminus\left(Fix(V)\cup\Gamma\right) \text{ va } N=\bigcap_{i=1}^{q}\Delta_{\tau_i}\setminus\left(Fix(V)\cup\Gamma\right).$$

Keyingi teoremada (4) KSOga mos orbitalarning limit nuqtalari to‘plami tavsiflangan.

3-teorema. *(4) KSO uchun quyidagi tasdiqlar o‘rinli:*

i) agar $\mathbf{x}^{(0)}\in\Gamma=\left\{\mathbf{x}\in S^{m-1}: x_m=0\right\}\cup\{\mathbf{e}_m\}$ *bo‘lsa, u holda* $\omega_V\left(\mathbf{x}^{(0)}\right)=\{\mathbf{e}_m\}$*;*

ii) agar $\alpha\in[-1,0]$ *bo‘lsa, u holda* $\forall\mathbf{x}^{(0)}\in S^{m-1}\setminus\Gamma$ *uchun* $\omega_V\left(\mathbf{x}^{(0)}\right)=\{\mathbf{e}_m\}$*;*

iii) agar $\alpha\in(0,1]$ *va* $\pi=\mathrm{Id}$ *bo‘lsa, u holda* $\forall\mathbf{x}^{(0)}\in M$ *uchun* $\omega_V\left(\mathbf{x}^{(0)}\right)=\{\overline{\mathbf{x}}_M\}$*;*

iv) agar $\alpha\in(0,1]$ *va* $\pi\neq\mathrm{Id}$ *bo‘lsa, u holda* $\forall\mathbf{x}^{(0)}\in N$ *uchun* $\omega_V\left(\mathbf{x}^{(0)}\right)=\{\overline{\mathbf{x}}_N\}$*;*

v) agar $\alpha\in(0,1]$ *va* $\pi\neq\mathrm{Id}$ *bo‘lsa, u holda* $\forall\mathbf{x}^{(0)}\in\bigcap_{i\in\Omega_1}\Delta_{\tau_i}\setminus\left(Fix(V)\cup\Gamma\cup\bigcup_{j\in\Omega_2}\Delta_{\tau_j}\right)$ *uchun* $\overline{\mathbf{x}}=\lim_{n\to\infty}V^{\sigma n}\left(\mathbf{x}^{(0)}\right)$ *limit mavjud va* $\omega_V\left(\mathbf{x}^{(0)}\right)=\left\{\overline{\mathbf{x}},\,\overline{\mathbf{x}}^{(1)},...,\overline{\mathbf{x}}^{(\sigma-1)}\right\}$*;*

vi) agar $\alpha\in(0,1]$ *va* $\pi\neq\mathrm{Id}$ *bo‘lsa, u holda* $\forall\mathbf{x}^{(0)}\in S^{m-1}\setminus\left(Fix(V)\cup\Gamma\cup\bigcup_{i=1}^{q}\Delta_{\tau_i}\right)$ *uchun* $\overline{\mathbf{x}}=\lim_{n\to\infty}V^{sn}\left(\mathbf{x}^{(0)}\right)$ *limit mavjud va* $\omega_V\left(\mathbf{x}^{(0)}\right)=\left\{\overline{\mathbf{x}},\,\overline{\mathbf{x}}^{(1)},...,\overline{\mathbf{x}}^{(s-1)}\right\}$.

Ikkinchi bobning uchinchi paragrafida chekli o‘lchamli simpleksda aniqlangan mutatsiyalarga mos novolterra kvadratik stoxastik operatorlari qurilgan va ularning invariant to‘plamlari, davriy nuqtalari topilgan. Shuningdek, ikkinchi bobning to‘rtinchi paragrafida shu operatorning limit nuqtalar to‘plami tavsiflangan.

Ikkinchi bobning uchinchi paragrafida quyidagi operator qaralgan

$$V:\begin{cases} x_k^{'} = \alpha x_{\pi(k)}^2 + \dfrac{2\alpha}{m-1}\sum\limits_{\substack{i,l=1:\\ i<l}}^{m-1} x_i x_l + (1+\alpha) x_{\pi(k)} x_m,\ k\in E_{m-1}, \\ x_m^{'} = x_m^2 + (1-\alpha)\left(\sum\limits_{i=1}^{m-1} x_i\right)^2 + (1-\alpha) x_m \left(\sum\limits_{i=1}^{m-1} x_i\right), \end{cases} \tag{5}$$

bu yerda $\alpha\in[0,1]$ va π esa E_{m-1} to‘plamning biror o‘rin almashtirishi.

Shuni ta’kidlash kerakki, agar $\alpha=0$ bo‘lsa, (5) operator (4) operator bilan bir xil bo‘ladi. Shuning uchun quyida $\alpha\in(0,1]$ hol tadqiq qilinadi.

$\alpha>0$ son uchun quyidagi belgilashlarni kiritamiz:

$$\mathbf{y}_\alpha=(\alpha,0,1-\alpha),\ z_\alpha=(0,\alpha,1-\alpha),\ \mathbf{x}_{\alpha,m}=\left(\frac{\alpha}{m-1},\dots,\frac{\alpha}{m-1},1-\alpha\right) \text{ va}$$

$$\hat{\mathbf{x}}=\left(\frac{\alpha x_1^{(0)}}{x_1^{(0)}+x_2^{(0)}},\frac{\alpha x_2^{(0)}}{x_1^{(0)}+x_2^{(0)}},1-\alpha\right),\quad \tilde{\mathbf{x}}=\left(\frac{\alpha x_2^{(0)}}{x_1^{(0)}+x_2^{(0)}},\frac{\alpha x_1^{(0)}}{x_1^{(0)}+x_2^{(0)}},1-\alpha\right).$$

Keyingi teoremada $m=3$ uchun (5) KSOga mos orbitalarning limit nuqtalar to‘plami tavsiflangan.

4-teorema. *$m=3$ bo‘lsin. (5) KSO uchun quyidagi tasdiqlar o‘rinli:*

i) agar $\pi=Id$ bo‘lsa, u holda

$$\omega_V\left(\mathbf{x}^{(0)}\right)=\begin{cases}\{\mathbf{e}_3\}, & agar\ \mathbf{x}^{(0)}=\mathbf{e}_3,\\ \{\mathbf{y}_\alpha\}, & agar\ \mathbf{x}^{(0)}\in\Gamma_{\{1,3\}}\setminus\{\mathbf{e}_3\},\\ \{\mathbf{z}_\alpha\}, & agar\ \mathbf{x}^{(0)}\in\Gamma_{\{2,3\}}\setminus\{\mathbf{e}_3\},\\ \{\hat{\mathbf{x}}\}, & agar\ \mathbf{x}^{(0)}\in S^2\setminus\left(\Gamma_{\{1,3\}}\cup\Gamma_{\{2,3\}}\right);\end{cases}$$

ii) agar $\pi\neq Id$ bo‘lsa, u holda

$$\omega_V\left(\mathbf{x}^{(0)}\right)=\begin{cases}\{\mathbf{e}_3\}, & agar\ \mathbf{x}^{(0)}=\mathbf{e}_3,\\ \{\mathbf{x}_{\alpha,3}\}, & agar\ \mathbf{x}^{(0)}\in M_{=}^{(12)}\setminus\{\mathbf{e}_3\},\\ \{\mathbf{y}_\alpha,\mathbf{z}_\alpha\}, & agar\ \mathbf{x}^{(0)}\in\left(\Gamma_{\{1,3\}}\cup\Gamma_{\{2,3\}}\right)\setminus\{\mathbf{e}_3\},\\ \{\tilde{\mathbf{x}},\hat{\mathbf{x}}\}, & agar\ \mathbf{x}^{(0)}\in S^2\setminus\left(\Gamma_{\{1,3\}}\cup\Gamma_{\{2,3\}}\cup M_{=}^{(12)}\right).\end{cases}$$

$\alpha>0$ uchun quyidagi belgilashlarni kiritib olamiz $\mathbf{x}_\xi=(\xi_1,\xi_2,\dots,\xi_{m-1},1-\alpha)$, bu yerda $\xi_u=\alpha\delta_{k,u}$, $k,u\in\operatorname{supp}(\tau_i)$ va $C=C_1\cup C_2$, bu yerda

$$C_1=\bigcup_{u\in E_{m-1}\setminus\operatorname{supp}(\pi)}\Gamma_{\{u,m\}}\ \ va\ C_2=\bigcup_{u\in\operatorname{supp}(\pi)}\Gamma_{\{u,m\}}.$$

$$\hat{B}_\alpha=\left\{\mathbf{x}_\ell\in S^{m-1}:\mathbf{x}_\ell=\left(\alpha\delta_{1,\ell},\dots,\alpha\delta_{m-1,\ell},1-\alpha\right),\ \ell\in\operatorname{supp}(\pi)\right\},$$

$$\tilde{B}_\alpha=\left\{\mathbf{x}_\ell\in S^{m-1}:\mathbf{x}_\ell=\left(\alpha\delta_{1,\ell},\dots,\alpha\delta_{m-1,\ell},1-\alpha\right),\ \ell\in E_{m-1}\setminus\operatorname{supp}(\pi)\right\},$$

bu yerda $\delta_{i,j}$ Kroneker deltasi, $B_\alpha=\tilde{B}_\alpha\cup\hat{B}_\alpha$.

Keyingi teoremada $m>3$ hol uchun (5) KSOga mos orbitalarning limit nuqtalari to‘plami tavsiflangan.

5-teorema. $m>3$ *bo‘lsin.* (5) *KSO uchun quyidagi tasdiqlar o‘rinli:*

i) har qanday π *va* $\forall \mathbf{x}^{(0)} \in S^{m-1} \setminus C$ *uchun* $\omega_V\left(\mathbf{x}^{(0)}\right)=\left\{\mathbf{x}_{\alpha,m}\right\}$;

ii) agar $\pi=\mathrm{Id}$ *bo‘lsa, u holda* $\forall \mathbf{x}^{(0)} \in C \setminus Fix(V)$ *uchun* $\exists\, u \in E_{m-1}$ *topilib,* $\mathbf{x}^{(0)} \in \Gamma_{\{u,m\}}$ *va* $\omega_V\left(\mathbf{x}^{(0)}\right)=\left\{\mathbf{x}_u\right\}$*;*

iii) agar $\pi \neq \mathrm{Id}$ *bo‘lsa, u holda* $\forall \mathbf{x}^{(0)} \in C_1 \setminus Fix(V)$ *uchun* $\exists\, u \in E_{m-1} \setminus \operatorname{supp}(\pi)$ *topilib,* $\mathbf{x}^{(0)} \in \Gamma_{\{u,m\}}$ *va* $\omega_V\left(\mathbf{x}^{(0)}\right)=\left\{\mathbf{x}_u\right\}$*;*

iv) agar $\pi \neq \mathrm{Id}$ *bo‘lsa, u holda* $\forall \mathbf{x}^{(0)} \in C_2 \setminus Fix(V)$ *uchun* $\exists\, u \in \operatorname{supp}(\tau_i)$ *topilib,* $\mathbf{x}^{(0)} \in \Gamma_{\{u,m\}}$ *o‘rinli bo‘ladi. Bundan tashqari* $\mathbf{x}_\xi=\lim_{n\to\infty} V^{nt_i}\left(\mathbf{x}^{(0)}\right)$, $t_i=ord\left(\tau_i\right)$ *limit mavjud va* $\omega_V\left(\mathbf{x}^{(0)}\right)=\left\{\mathbf{x}_\xi, \mathbf{x}_\xi^{(1)},...,\mathbf{x}_\xi^{(t_i-1)}\right\}$.

Dissertatsiyaning **“Qayta yuquvchi diskret vaqtli SIRD epidemik modeli dinamikasi”** nomli uchinchi bobida, qayta yuquvchi diskret vaqtli SIRD (Susceptible-Infected-Recovered-Died) epidemik modelining dinamik xossalari tadqiq etilgan. Bobning birinchi paragrafida epidemik modellar haqida dastlabki ma’lumotlar berilgan, klassik SIRD epidemik modelini o‘zgartirishdan hosil bo‘lgan qayta yuquvchi SIRD epidemik modelining o‘zgaruvchilari va parametrlari tavsiflangan.

Uchinchi bobning ikkinchi paragrafida quyidagi qayta yuquvchi SIRD

$$\begin{cases} \dfrac{dS}{dt} = -\beta SI + \mu R, \\ \dfrac{dI}{dt} = \beta SI - (\gamma_1+\gamma_2)I, \\ \dfrac{dR}{dt} = \gamma_1 I - \mu R, \\ \dfrac{dD}{dt} = \gamma_2 I, \end{cases} \tag{6}$$

epidemik modelining diskret muqobili bo‘lgan (7) kvadratik operator qaralgan

$$V: \begin{cases} x_1' = x_1 + \mu x_3 - \beta x_1 x_2, \\ x_2' = (1-\gamma_1-\gamma_2)x_2 + \beta x_1 x_2, \\ x_3' = (1-\mu)x_3 + \gamma_1 x_2, \\ x_4' = x_4 + \gamma_2 x_2. \end{cases} \tag{7}$$

Yuqoridagi (7) kvadratik operator simpleksni invariant saqlashi uchun operator parametrlariga zarur va yetarli shartlar topilgan. Bundan tashqari operatorning invariant to‘plamlari, qo‘zg‘almas nuqtalari to‘plami tavsiflangan va har bir qo‘zg‘almas nuqtaning tiplari aniqlangan.

1-tasdiq. *(7) operator* S^3 *simpleksni o'zini o'ziga akslantirishi uchun uning parametrlari*

$$\mu,\ \gamma_1,\ \gamma_2,\ \gamma_1+\gamma_2\in[0,1],\ \ \gamma_1+\gamma_2-1\le\beta\le\left(1+\sqrt{\gamma_1+\gamma_2}\right)^2 \qquad (8)$$

shartlarni qanoatlantirishi zarur va yetarli.

Bobning oxirgi paragrafida (7) kvadratik operatorga mos orbitalarning limit nuqtalari to'plami tavsiflangan.

6-teorema. *(7) operator uchun quyidagi tasdiqlar o'rinli:*

i) agar $\mathbf{x}^{(0)}\in\Gamma_{\{1,3,4\}}\setminus Fix(V)$ *bo'lsa, u holda* $\lim\limits_{n\to\infty}V^n\left(\mathbf{x}^{(0)}\right)=\left(1-x_4^{(0)},0,0,x_4^{(0)}\right)$*;*

ii) agar $\beta=\gamma_1=\gamma_2=0,\ \mu>0$ *bo'lsa, u holda barcha* $\mathbf{x}^{(0)}\in S^3\setminus\left(\Gamma_{\{1,2,4\}}\cup\Gamma_{\{1,3,4\}}\right)$ *uchun*

$$\lim_{n\to\infty}V^n\left(\mathbf{x}^{(0)}\right)=\left(1-x_2^{(0)}-x_4^{(0)},x_2^{(0)},0,x_4^{(0)}\right);$$

iii) agar $\beta=\gamma_1=\mu=0,\ \gamma_2>0$ *bo'lsa, u holda ixtiyoriy* $\mathbf{x}^{(0)}\in S^3\setminus\Gamma_{\{1,3,4\}}$ *uchun*

$$\lim_{n\to\infty}V^n\left(\mathbf{x}^{(0)}\right)=\left(x_1^{(0)},0,x_3^{(0)},1-x_1^{(0)}-x_3^{(0)}\right);$$

iv) agar $\beta=\gamma_2=\mu=0,\ \gamma_1>0$ *bo'lsa, u holda ixtiyoriy* $\mathbf{x}^{(0)}\in S^3\setminus\Gamma_{\{1,3,4\}}$ *uchun*

$$\lim_{n\to\infty}V^n\left(\mathbf{x}^{(0)}\right)=\left(x_1^{(0)},0,1-x_1^{(0)}-x_4^{(0)},x_4^{(0)}\right);$$

v) agar $\gamma_1=\gamma_2=\mu=0,\ \beta>0$ *bo'lsa, u holda ixtiyoriy* $\mathbf{x}^{(0)}\in S^3\setminus\left(\Gamma_{\{1,3,4\}}\cup\Gamma_{\{2,3,4\}}\right)$ *uchun*

$$\lim_{n\to\infty}V^n\left(\mathbf{x}^{(0)}\right)=\left(0,1-x_3^{(0)}-x_4^{(0)},x_3^{(0)},x_4^{(0)}\right)\ ;$$

vi) agar $\gamma_1=\gamma_2=\mu=0,\ \beta<0$ *bo'lsa, u holda ixtiyoriy* $\mathbf{x}^{(0)}\in S^3\setminus\left(\Gamma_{\{1,3,4\}}\cup\Gamma_{\{2,3,4\}}\right)$ *uchun*

$$\lim_{n\to\infty}V^n\left(\mathbf{x}^{(0)}\right)=\left(1-x_3^{(0)}-x_4^{(0)},0,x_3^{(0)},x_4^{(0)}\right);$$

vii) agar $\beta=\gamma_1=0,\ \gamma_2\mu>0$ *bo'lsa, u holda ixtiyoriy* $\mathbf{x}^{(0)}\in S^3\setminus\Gamma_{\{1,3,4\}}$ *uchun*

$$\lim_{n\to\infty}V^n\left(\mathbf{x}^{(0)}\right)=\left(x_1^*,0,0,1-x_1^*\right);$$

viii) agar $\beta=\gamma_2=0,\ \gamma_1\mu>0$ *bo'lsa, u holda ixtiyoriy* $\mathbf{x}^{(0)}\in S^3\setminus\Gamma_{\{1,3,4\}}$ *uchun*

$$\lim_{n\to\infty}V^n\left(\mathbf{x}^{(0)}\right)=\left(1-x_4^{(0)},0,0,x_4^{(0)}\right);$$

ix) agar $\beta=\mu=0,\ \gamma_1\gamma_2>0$ *bo'lsa, u holda ixtiyoriy* $\mathbf{x}^{(0)}\in S^3\setminus\Gamma_{\{1,3,4\}}$ *uchun*

$$\lim_{n\to\infty}V^n\left(\mathbf{x}^{(0)}\right)=\left(x_1^{(0)},0,x_3^*,1-x_1^{(0)}-x_3^*\right);$$

x) agar $\gamma_1=\gamma_2=0,\ \beta\mu>0$ *bo'lsa, u holda* $\mathbf{x}^{(0)}\in S^3\setminus\left(\Gamma_{\{1,3,4\}}\cup\Gamma_{\{2,4\}}\right)$ *uchun*

$$\lim_{n\to\infty}V^n\left(\mathbf{x}^{(0)}\right)=\left(0,1-x_4^{(0)},0,x_4^{(0)}\right);$$

xi) agar $\gamma_1=\gamma_2=0,\ \beta\mu<0$ *bo'lsa, u holda ixtiyoriy* $\mathbf{x}^{(0)}\in S^3\setminus\left(\Gamma_{\{1,3,4\}}\cup\Gamma_{\{2,4\}}\right)$ *uchun*

$$\lim_{n\to\infty} V^n\left(\mathbf{x}^{(0)}\right)=\left(1-x_4^{(0)},0,0,x_4^{(0)}\right);$$

xii) agar $\gamma_1=\mu=0,\ \beta\gamma_2\neq 0$ *bo'lsa, u holda ixtiyoriy* $\mathbf{x}^{(0)}\in S^3\setminus\Gamma_{\{1,3,4\}}$ *uchun*

$$\lim_{n\to\infty} V^n\left(\mathbf{x}^{(0)}\right)=\left(x_1^*,0,x_3^{(0)},1-x_1^*-x_3^{(0)}\right);$$

xiii) agar $\gamma_2=\mu=0,\ \beta\gamma_1\neq 0$ *bo'lsa, u holda ixtiyoriy* $\mathbf{x}^{(0)}\in S^3\setminus\Gamma_{\{1,3,4\}}$ *uchun*

$$\lim_{n\to\infty} V^n\left(\mathbf{x}^{(0)}\right)=\left(x_1^*,0,1-x_1^*-x_4^{(0)},x_4^{(0)}\right);$$

xiv) agar $\beta=0,\ \gamma_1\gamma_2\mu>0$ *bo'lsa, u holda ixtiyoriy* $\mathbf{x}^{(0)}\in S^3\setminus\Gamma_{\{1,3,4\}}$ *uchun*

$$\lim_{n\to\infty} V^n\left(\mathbf{x}^{(0)}\right)=\left(x_1^*,0,0,1-x_1^*\right);$$

xv) agar $\gamma_1=0,\ \beta\gamma_2\mu\neq 0$ *bo'lsa, u holda ixtiyoriy* $\mathbf{x}^{(0)}\in S^3\setminus\Gamma_{\{1,3,4\}}$ *uchun*

$$\lim_{n\to\infty} V^n\left(\mathbf{x}^{(0)}\right)=\left(1-x_4^*,0,0,x_4^*\right);$$

xvi) agar $\gamma_2=0,\ \beta\gamma_1\mu\neq 0,\ \beta\leq\gamma_1$ *bo'lsa, u holda ixtiyoriy* $\mathbf{x}^{(0)}\in S^3\setminus\Gamma_{\{1,3,4\}}$ *uchun*

$$\lim_{n\to\infty} V^n\left(\mathbf{x}^{(0)}\right)=\left(1-x_4^{(0)},0,0,x_4^{(0)}\right);$$

xvii) agar $\mu=0,\ \gamma_1\gamma_2>0,\ \beta\neq 0$ *bo'lsa, u holda har qanday* $\mathbf{x}^{(0)}\in S^3\setminus\Gamma_{\{1,3,4\}}$ *uchun*

$$\lim_{n\to\infty} V^n\left(\mathbf{x}^{(0)}\right)=\left(x_1^*,0,x_3^*,1-x_1^*-x_3^*\right);$$

xviii) agar $\beta\gamma_1\gamma_2\mu\neq 0$ *bo'lsa, u holda ixtiyoriy* $\mathbf{x}^{(0)}\in S^3\setminus\Gamma_{\{1,3,4\}}$ *uchun*

$$\lim_{n\to\infty} V^n\left(\mathbf{x}^{(0)}\right)=\left(1-x_4^*,0,0,x_4^*\right).$$

1-gipoteza. *Agar* $\gamma_2=0,\ \beta>\gamma_1>0,\ \mu>0$ *bo'lsa u holda ixtiyoriy* $\mathbf{x}^{(0)}\in S^3\setminus\Gamma_{\{1,3,4\}}$ *boshlang'ich nuqta uchun*

$$\lim_{n\to\infty}\mathbf{x}^{(n)}=\begin{cases}\tilde{\mathbf{y}}, & agar\quad 0\leq x_4^{(0)}<\dfrac{\beta-\gamma_1}{\beta},\\[2ex] \mathbf{x}^*\in\Gamma_{\{1,4\}}, & agar\quad \dfrac{\beta-\gamma_1}{\beta}\leq x_4^{(0)}<1,\end{cases}$$

bu yerda $\tilde{\mathbf{y}}=\left(\dfrac{\gamma_1}{\beta},\dfrac{\mu\left(\beta-\gamma_1-\beta x_4^{(0)}\right)}{\beta\left(\mu+\gamma_1\right)},\dfrac{\gamma_1\left(\beta-\gamma_1-\beta x_4^{(0)}\right)}{\beta\left(\mu+\gamma_1\right)},x_4^{(0)}\right),\ 0\leq x_4^{(0)}\leq\dfrac{\beta-\gamma_1}{\beta}.$

XULOSA

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti o‘rin almashtirishlarga mos novolterra kvadratik stoxastik operatorlari va qayta yuquvchi diskret vaqtli SIRD epidemik modeli tomonidan hosil qilgan nochiziqli dinamik sistemalarni tadqiq etishga bag‘ishlangan.

Tadqiqot ishining asosiy natijalari quyidagilardan iborat:

1. Ikki o‘lchamli simpleksda aniqlangan (α,β)-KSO uchun ixtiyoriy boshlang‘ich nuqtaning orbitasi operatorning qo‘zg‘almas nuqtasiga yoki davri ikkiga teng bo‘lgan davriy orbitasiga yaqinlashishi isbotlangan;
2. Chekli o‘lchamli simpleksda aniqlangan o‘rin almashtirishlarga mos novolterra KSOning barcha invariant to‘plamlari, davriy nuqtalari topilgan. Shu bilan birga ixtiyoriy boshlang‘ich nuqta orbitasi operatorning qo‘zg‘almas nuqtasiga yoki davriy orbitasiga yaqinlashishi ko‘rsatilgan;
3. Chekli o‘lchamli simpleksda aniqlangan mutatsiyalarga mos novolterra KSOning invariant to‘plamlari, davriy nuqtalar to‘plami topilgan va ixtiyoriy boshlang‘ich nuqta orbitasining limit nuqtalari to‘plami chekli bo‘lishi isbotlangan;
4. Qayta yuquvchi SIRD epidemik modelining diskret muqobili bo‘lgan kvadratik operator uch o‘lchamli simpleksni invariant saqlashi uchun operator parametrlariga zarur va yetarli shartlar topilgan. Operatorga mos Lyapunov funksiyasi qurilgan. Bundan tashqari, ixtiyoriy boshlang‘ich nuqtaning orbitasi operatorning qo‘zg‘almas nuqtalaridan biriga yaqinlashishi ko‘rsatilgan.

SCIENTIFIC COUNCIL AWARDING OF THE SCIENTIFIC DEGREES DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 INSTITUTE OF MATHEMATICS NAMED AFTER V.I. ROMANOVSKIY

INSTITUTE OF MATHEMATICS

KHUDOYBERDIEV KHAYOTJON OCHILTOSH OGLI

DYNAMICS OF NON-VOLTERRA QUADRATIC OPERATORS: PERMUTED AND EPIDEMIC MODELS

01.01.01-Mathematical analysis

ABSTRACT OF THESIS OF THE DOCTOR OF PHILOSOPHY (PhD) ON PHYSICAL AND MATHEMATICAL SCIENCES

TASHKENT-2025

The theme of dissertation of doctor of philosophy (PhD) on physical and mathematical sciences was registered at the Supreme Attestation Commission at the of Ministers of Higher education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan under number B2024.4.PhD/FM1176.

Thesis has been prepared at Institute of Mathematics.

The abstract of the thesis is posted in three languages (Uzbek, English, Russian (summary)) on the website http://kengash.mathinst.uz and in the website of "ZiyoNet" Information and educational portal http://www.ziyonet.uz/.

Scientific supervisor:	**Jamilov Uygun Umurovich** doctor of physical and mathematical sciences
Official opponents:	**Ganikhodjaev Nosir Nabiyevich** doctor of physical and mathematical sciences, professor
	Usmonov Javohir Bahodir ogli doctor of philosophy (PhD) on physical and mathematical sciences
Leading organization:	**Tashkent State Transport University**

Defense will take place on "01" July 2025 at 16:00 at the meeting of Scientific Council number DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 at Institute of Mathematics named after V.I. Romanovskiy. (Address: University str. 9, Almazar area, Tashkent city, 100174, Uzbekistan, Ph.: (99871) 207-91-40, e-mail: uzbmath@umail.uz, Website: www.mathinst.uz)

Dissertation is possible to review in Information-resource center at Institute of Mathematics named after V.I. Romanovskiy (is registered № 205). (Address: University str. 9, Almazar area, Tashkent city, 100174, Uzbekistan, Ph.: (99871)-207-91-40).

Abstract of the thesis sent out on "11" June 2025 year
(Mailing report № 2 on "11" June 2025 year)

U.A. Rozikov
Chairman of Scientific Council
on award of scientific degrees,
D.F.-M.S., Academician

J.K. Adashev
Scientific secretary of Scientific Council
on award of scientific degrees,
D.F.-M.S., Senior researcher

A.A.Rakhimov
Deputy Chairman of Scientific seminar under
Scientific Council on award of scientific degrees,
D.F.-M.S., Professor

INTRODUCTION

Actuality and demand of the theme of the dissertation. Many scientific and applied research studies conducted worldwide often involve examining the properties of nonlinear dynamical systems. These properties are widely used in forecasting problems in fields such as mathematical biology, genetics, and medicine. Dynamical systems are classified into two types: continuous-time dynamical systems and discrete-time dynamical systems. In mathematical biology, a primary focus of research is on dynamical systems generated by operators that describe the evolution of biological populations. Consequently, the study of the dynamics of quadratic stochastic operators, which are an important class of evolutionary operators, remains a topical problem in the theory of nonlinear dynamical systems.

Currently, the dynamical properties of Volterra quadratic stochastic operators have been extensively studied. However, a key unsolved problem in the theory of nonlinear dynamical systems the investigation of the asymptotic behavior of orbits generated by non-Volterra quadratic stochastic operators. Fundamental to these studies are problems such as identifying invariant sets of nonlinear dynamical systems generated by quadratic stochastic operators, determining the exact forms and types of periodic points, constructing Lyapunov functions, and analyzing the asymptotic behavior of orbits. It should be noted that these problems have not yet been fully resolved in the general theory of nonlinear dynamical systems. Therefore, one of the key directions of scientific research is the study of the dynamical properties of non-Volterra quadratic stochastic operators associated with permutations and epidemic models.

In recent years, in our country, increased attention has been given to medicine, biology, mathematics and physics, fields that represent the scientific and practical application of fundamental sciences. In particular, special focus has been placed on developing the theory of nonlinear dynamical systems, which has broad applications in biology, medicine, and economics, leading to significant achievements in this area. Conducting scientific research at an international standard in the priority fields of “Algebra, functional analysis and theory of dynamical systems” has been established as a key objective in mathematics[1]. To ensure the implementation of this decision, it is important to develop the theory of discrete-time dynamical systems generated by quadratic stochastic operators, enabling the application of scientific results to related fields.

The subject and object of research of this dissertation are in line with tasks identified in the Decrees of the President of the Republic of Uzbekistan UP-4947 of February 7, 2017 “On the strategy of action for the further development Of the Republic of Uzbekistan”, UP-60 dated January 28, 2022 “Development Strategy of New Uzbekistan for the period of 2022-2026”, UP-2789 dated April 20, 2017 “On measures to further develop the system of higher education”, UP-2789 dated April

